



UDK: 372.851.334.722 (075)

Surayyo MUQUMOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti
E-mail.mukumovasurayo@gmail.com

PhD N.G'ulomova taqrizi asosida

INTEGRATIVE APPROACH IN NATIVE LANGUAGE EDUCATION

Annotation

Modern textbooks are based not only on inter-departmental and inter-class integration, but also on inter-subject integration. The article describes integration and its essence in mother tongue education.

Key words: Integration, native language textbooks, internal integration, external integration, humanities, exact sciences.

ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД ОБРАЗОВАНИЕ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Современные учебники основаны не только на межкафедральной и межклассной интеграции, но и на межпредметной интеграции. В статье описывается интеграция и ее сущность в обучении на родном языке.

Ключевые слова: Интеграция, учебники родного языка, внутренняя интеграция, внешняя интеграция, гуманитарные науки, точные науки.

ONA TILI TA'LIMIDA INTEGRATIV YONDASHUV

Annotatsiya

Zamonaviy darsliklar nafaqat bo'limlararo, sinflararo integratsiya balki fanlararo integratsiyaga ham asoslangan. Maqolada ona tili ta'limida integratsiya va uning mohiyati talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, ona tili darsliklari, ichki integratsiya, tashqi integratsiya, gumanitar fanlar, aniq fanlar.

Kirish. Integratsiya (lot. integratio - tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish) 1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog'liqlik holatini, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. 2. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayoni.[1] Ona tili barcha fanlarni puxta o'zlashtirish uchun asos vazifasini bajaradi. O'quvchi til vositasida boshqa fanlarni o'rganadi. Barcha fanlarlardan o'z fikrini yozma va og'zaki ravishda bayon etadi. Ona tili dastur va darsliklarida til faniga oid bilimlarini o'rganish uchun barcha fanlarga oid matnlar, mavzular berilgan va ular asosida til faniga oid bilimlar o'rganiladi. Ta'lim mazmuni va ko'lamini optimallashtirish, ta'lim mazmunini o'quvchi ongi va tafakkurida hayotiy obrazlar vositasida gavdalandirishda ham fanlararo integratsiyaning imkoyiyati cheksiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, D.Lokk, I.Gerbert, M. Pestalotsti, K.Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.D. Zverev, M.A. Danilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova, N.M. Katkina va boshqalar), psixolog olimlarning (E.N. Kabanova, N. Pishkalo, Meller, N.F. Talizina, Y.A. Samarina, G.L. Vergeles), medist olimlarning (M.R.Lvov, V.G.Goretskiy, N.N.Svetlovskaya, Y.M.Kolyagin, G.N. Pristupova, L.V.Levenberg) ishlarida ko'rib chiqilgan. Boshlang'ich ta'lim dars jarayonida bir qator ishlar fanlararo aloqalarga bag'ishlangan. Bu fanlarni integratsiyalashda olimlardan T.G. Rizayeva, G.N.Akvileva, D.I. Troytap, G.V. Balyukova, N.Y. Velenkin, N.M.Drujnina, T.S.Nazarova, L.K. Blinova, R.G.Matyushova tomonidan katta ishlar olib borilgan. Ushbu muammo o'zbek olimlaridan R.Mavlonova, Q.Abdullayeva, N.U.Bikbayeva, A. G. Grigoryans, E.I.Nikolayeva, X.K. Qayumovlarning ishlarida ko'rib chiqilgan.[2]

Tadqiqot metodologiyasi. Mantiqan olib qaralganda borliqdagi jamiki narsa va hodisalar bir-biri bilan tizim sifatida bog'liq. Qaysi soha yoki fan bo'lmasin, shunga yaqin boshqa soha yoki fan bilan bog'liqlik jihatlari bo'ladi. Til va

adabiyot, fizika va matematika, kimyo va biologiya (Bunday fanlar qatorini yana ko'plab davom ettirish mumkin.) biri ikkinchisini to'ldirib turuvchi, bir-biri bilan chambarchas bo'g'liq fanlardir. Bu esa bilish, anglash, tahlil qilishda fanlararo bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu bog'liqlik ularni baravar o'rganish va tadqiq qilishni talab etadi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi tomonidan "Ona tili" faniga oid "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi", umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili dasturlari va darsliklari yaratilishi uchun asos vazifasini bajaradi. Milliy o'quv dasturining oldingi dasturlardan farqi - chiziqli yondashuvdan spiralsimon yondashuvga o'tilganligi. Bunda amaldagi darsliklarda bo'lgani singari bir darsda masalan fonetika yoki morfologiyaga oid bilimlar bir mavzu, bo'lim doirasida ketma-ketlikda o'rganilmaydi, bir mavzu doirasida morfologiya, leksikologiya, sinatksisga oid bilimlar o'rganilishi mumkin. Chunonchi, biror so'z turkumi, masalan, ot yoki fe'l turkumiga oid bilimlar 6-, 7-, 9-sinfda ham davom etishi mumkin. Oldingi sinflarda o'tilgan mavzularga keyingi sinflarda qo'shimcha ma'lumotlar bilan kengaytirilib, chuqurlashtirilgan holda yana murojaat qilinadi. Dasturda ona tili ta'limida fanlararo integratsiya, bo'limlararo, sinflararo integratsiyaning asoslari ko'rsatib o'tilgan. Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o'quv fanlarini o'zlashtirishda qulaylik vujudga keladi, samaradorlik yuqori bo'lib, tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi.

5-sinfda "Tilshunoslik" fanining "Fonetika" bo'limiga ajratilgan mavzular va soatlar miqdori anchagina. Bu bo'lim mazkur fanni o'rganishga poydevor vazifasini bajaradi. Fonetika bo'limi tilshunoslikning barcha bo'limlari bilan aloqador. Fonetika bo'limini o'rgatishda, albatta, o'qituvchi anatomiya faniga bo'g'lab o'tishi lozim. Nutq tovushlarining hosil bo'lishini 8-sinf "Biologiya (Odam va uning salomatligi)"[3] darsligida "Nafas organlarining tuzilishi"

mavzusida ovozning hosil bo'lishi haqida ma'lumot berilgan, hatto "Ovozning nutqqa aylanishi" nomli kichik mavzusi ham bor. O'qituvchi insonda tovushning paydo bo'lishi haqidagi shu kabi bilimlarga tayangan holda fonetika bo'limini o'tishda integrativ yondashuv asosida o'quvchilarga tushuntirishi lozim[4].

Ona tili va adabiyot. Har qanday tilning jozibasi shu tilda yaratilgan asarlarda namoyon bo'ladi. Tilning umrboqiyiligini ta'minlovchi vositalardan biri (asosiysi desa ham bo'ladi.) shu tilda yaratilgan asarlardir. Bu ikki fan biri ikkinchisini to'ldirib, boyitib boradi. Shu bois til hodisalarini o'rganish (o'rgatishda ham) taqqoslash, solishtirish uchun badiiy asarlardan misollar olinadi. Mavzularda badiiy matnlardan parchalar keltirilishi, yoki ba'zi topshiriqlarda (uyga vazifa ruknida o'tilayotgan mavzuga mos holda) "Badiiy asarlardan misollar toping" sharti berilgan. Ayniqsa, barcha sinflardagi ona tili darsliklarida maqol janriga juda ko'p murojaat qilingan. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Ularda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo'nda bo'ladi. Maqollar juda ko'p soha va fanlar bilan bog'liq bo'lishi tabiiy. Maqollarning tarix, falsafa, fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, zollogiya, meditsina, iqtisod va hk.lar bilan bog'liq jihatlari mavjud. Xalqimizning asrlar davomida to'plagan boy hayotiy tajribasi son-sanoqsiz maqollarda umumlashtirilgan. Ana shu boy ijod durdonalarini imkoni boricha ma'nosini chuqur o'rganish va hayotda shu maqol va hikmatlardan o'rinli foydalanish malakasini egallash kerak[4]. Jumladan, amaldagi 5-sinf ona tili darsligida quyidagi mashq berilgan [5]: 356-mashq. Berilgan maqollarni daftaringizga ko'chiring. Oy nomlariga diqqat qiling. 1.Dalv kirdi, ekinlarga davr kirdi. 2.Yoz-yozil, qish-qisil. 3.Yoz yomg'iri yondan o'tar, Qish yomg'iri-jondan. 4.Asadda oralab ye, Sunbulada-saralab. 5.Ayamajiz olti kun, Olti oy qishdan qattiq kun. 6.Aqrab kellar hayqirib, Bola-chaqasini chaqirib.

Xalq o'zining astronomik va meteorologik kuzatishlari natijasida yaratgan maqollarida fasllar va oylarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tgan. Albatta, bunday maqollarda mazkur fanlarga doir ilmiy asoslar mavjud bo'ladi. O'qituvchi bu maqollarning kelib chiqishi va ma'nolarini izohlashi lozim.

Ona tili, ifodali o'qish va nutq madaniyati. Ifodali o'qishga o'rgatish, nutq madaniyatining talablari, qonun-qoidalarini o'zlashtirish, o'g'zaki va yozma nutq me'yorlari borasida muayyan ko'nikma hosil qilishdan iboratdir. Ifodali o'qish ham nutq madaniyati fanining bir qismi sanaladi. O'quvchilar ona tili mashg'ulotlarida filologiya (tilshunoslik) fani asoslariyu tushunchalarini o'zlashtirish bilan emas, balki ona tilining juda boy imkoniyatlari asosida mustaqil fikrlash va ijodiy fikr mahsulini turli-tuman shakllarda go'zal nutq sifatida bayon etish ustida ishlashlari lozim. Ona tilidan ta'lim mazmuni ham, ta'lim usuli, o'quvchilar bajarishlari lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari ham ta'lim maqsadida belgilangan mana shu jihatga xizmat qilmog'i zarur[5]. Ona tili ta'limi oldida turgan murakkab talab o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish. Nutq madaniyati kundalik (erkin) mulototni ham, turli vaziyatlarda qanday so'zlashish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. Har bir dars nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ona tilining har bir bo'limida uslublar bilan bog'liq bilimlarni o'rganish mo'ljallangan va sinfdan sinfga murakkablashib boraveradi. Mavzularda turli uslubdagi matnlar berilgan. O'qituvchi o'quvchini matn uslubi va uning o'ziga xos jihatlari o'rganishga yo'naltirib borishi kerak. (5-sinfdan). Bu o'quvchining uslublarni farqlash va matnlarni qaysi fan yoki sohaga aloqador bo'lsa, shu fan/sohaga oid atamalar (terminlar) va ularning ustida ishlash malakasini shakllantiradi. Adabiyot darslarida badiiy asarlarni o'qish, tanishishi jarayonida yoki ona tili darslarida o'quvchi matn tuzayotganda, yoki grammatik topshiriqlarni bajara-yotganda,

fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis vb.ga doir ma'lumotlar berilgandan keyin misollar aytilish zarur bo'lganda o'quvchining badiiy asarlardan misollar keltirishi dars samaradorligini oshiradi, Shunda til fanining bo'limlari, uslubiyat, adabiyot fanlararo integratsiya ketadi. O'quvchida til va adabiyotdan olgan bilimlarini tahlil qilish, amalda qo'llash malakasi shakllanadi.

Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi "Lingvokulturologiya" fanini ham mukammal bilishi va o'zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini ona tili va adabiyot darslarida singdirishi lozim. Tilda uni yaratgan millatning ruhi yashaydi. Ona tili darslarida o'qituvchi tilning milliy-madaniy jihatlari bilan ham tanishtirib borishi lozim. Masalan, matnlardagi undov so'zlar (assalomu alaykum, rahmat), milliy kiyimlar, milliy taomlar, urf-odatlar, o'zidan kattalarni hurmat qilish vb. o'zbek millatiga xos bo'lgan tug'ilgan makon va ona yurtga muhabbat, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabi jihatlar ustuvorligi bilan belgilanadi. "Ona tili" darsliklarida berilgan matnlarda, mashqlar tarkibida berilgan gaplardagi hikmatli so'zlar, maqollarda umumbashariy va milliy qadriyatlar talqin qilingan va dars jarayonlarida o'quvchilarga bularni singdirish, uqtirib borish kerak. Ona tili darsliklarida dunyo xalqlari hayotiga oid matnlar berilgan. Adabiyot darslarida boshqa xalq adabiyotiga oid asarlar bilan tanishayotganda, avvalo, asardagi lingvokulturologik birliklar talqiniga e'tibor berish kerak. Salomlashish, urf-odatlar, murojaat shakllari, asar qahramonlarining ism(lar)i, joy nomlarini o'qiganda yoki eshitgandayoq o'sha xalq haqida tasavvur jonlanadi kishi ongida. Hatto o'zbek xalqining o'zida ham turli viloyatlarda iqlimi, tabiiy-geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kiyimlari, oziq-ovqat mahsulotlari, yashash tarzida farqlar; urf-odatlar vb.lar, dialektal jihatlari albatta tilda aks etganda lingvokulturologik ahamiyat kasb etadi va bu tahlil va talqinga muhtoj.

Leksikologiya tilshunoslikning semasiologiya, onomasiologiya, etimologiya va frazeologiya kabi bo'limlari bilan hamkorlikda ish ko'radi, bunday hamkorliksiz tilning lug'at boyligidagi leksik-semantik hodisalarini, lug'at tarkibi taraqqiyotiga oid til faktlarini to'g'ri yoritib bo'lmaydi. 7-sinfda "O'qing va mulohaza qiling" rukni ostida Erkin Vohidovning "So'z latofati" va Eshqobil Shukurning "Boboso'z izidan" kitoblardan, Orif Tolib maqolalaridan foydalanilgan holda qiziqarli ma'lumotlar berilgan. 10-sinf darsligida "Til sandig'i" ruknida ham so'zlarning kelib chiqishida uning mazmuniga asos bo'lgan dastlabki, ya'ni etimologik ma'nolari, sharhlangan.

Ona tili va boshqa fanlararo aloqadorlik. Deyarli hamma fanlar o'quvchilar-ning lug'at boyligini o'stirish, orfografik savodxonligini oshirish, nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ona tili fanining boshqa fanlar bilan bevosita aloqadorligini ko'rsatadi. Milliy o'quv dasturida ona tili va boshqa fanlar aloqadorligi ko'rsatib o'tilgan. Yangilangan ona tili darsliklari o'quvchi yoshiga, dunyoqarashi mos ravishda "quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga o'sish" tarzida tuzilgan bo'lib, ichki integratsiya va tashqi integratsiyaga asoslangan. Ichki integratsiya til fanining bo'limlari, tilshunoslik fanlararo aloqadorlik bo'lsa, tashqi integratsiya til faniga aloqador bo'lmagan gumanitar va aniq fanlar bilan aloqadorlikdir (ona tili darsliklarida boshqa fanlar, sohalariga aloqador matnlar berilgan. Shu matnlar, audiomatnlardan keyin o'qib tushunish, tinglab tushunish uchun topshiriqlar bor).

6-sinfda "Shifoxona", "Qayta ishlanadigan chiqindilar". "Jigar eng mehnatkash a'zo", "Kompyuter grafikasi", "Global isish", "Ko'z nurini asraylik", "Soliqlarni to'lab boryapsizmi?", "Konstitutsiya - bosh qomusimiz", "Davlatni kim boshqaradi?" 7-sinfda "Turon yo'lbarisi", "C vitamin", "Kelajak kasblari", "Veterinar", "Bobomning

pensiyasi”, “Fizika hayotni yengillashtiradi”, “Yozuvchi bo’lish osonmi?”, “Sharq taronalari”, “Oliy Majlis”, “Mualliflik huquqi” kabi mavzu nomlarining o’ziyoq bu mavzulardagi matnlar turli fan va sohalar bilan aloqadorlikni anglatib turadi. Mazkur mavzularda til fanining turli bo’limlariga oid bilimlar o’rganiladi.

Ona tili darslarida fanlararo integratsiya quyidagi tartibda bo’ladi:

bo’lim nomi va unda berilgan matn fan (kasb yoki soha)ni belgilaydi;

har bir bo’limda tanlangan mavzu ma’lum bir fan/sohaga aloqador;

tanlangan mavzuga doir matn;

matnga oid infografika;

matnning mohiyatini anglashga doir savol, topshiriqlar;

ona tili fanida o’tilayotgan mavzu(lar)ga doir mashq topshiriqlari. (Bunday topshiriqlar til fanining bir necha bo’limlariga aloqador bo’lishi mumkin.)

dastur asosida til fanidan o’tiladigan mavzuga taalluqli qoida;

audiomatn; audiomatn tahliliga doir savol va topshiriqlar;

uy vazifasi.

Xulosa va takliflar. Borliq, olam butun. O’simlik, hayvonlar tabiatning bir qismi bo’lgani kabi inson ham tabiatning bir bo’lagi hisoblanadi. Inson uchun barcha fanlar zarur. Kimyo, geografiya, fizika-astronomiya, matematika, biologiya, zoologiya fanlariga oid tushunchalar; til, falsafa,

tarix, adabiyot ham odamzodning yashashi, hayoti uchun zarur. Ona tilining boshqa fanlar bilan aloqasini ta’minlashga, ona tilining barcha ta’lim muassasalarida o’qitiladigan fanlar, o’quv predmetlarining o’rganish va o’rgatish vositasi ekanligini chuqur anglagan holda undan ilmiy va amaliy faoliyatda foydalanishga, ijtimoiy hayotning turli qirralarini aks ettirishga, shuningdek, ta’lim oluvchilarning yosh, gender va etnomadaniy xususiyatlariga, to’rtta lisoniy malakaning baravar shakllantirishga e’tibor qaratilishi lozim. Shuning uchun ona tili darslarida har bir mavzu doirasida boshqa fanlar bilan bog’langan holda tashkil etiladi va bu o’quv jarayonining mazmunli bo’lishini ta’minlaydi. Mavzu nomlarining o’zi ham turli fan va sohalar bilan aloqador: biologiya, geografiya, kimyo, fizika, iqtisod, kompyuter texnologiyalari, tarix, sana’at, madaniyat, huquq vb, turli sohalar va kabilar. Shu maqsadda milliy o’quv dasturida 5-11-sinfda ona tili fanini yuqoridagi fanlar bilan bilvosita aloqadorlikda o’rganish rejalashtirilgan. Har bir bo’lim nomlari va undagi mavzular, avvalo, ma’lum bir fan yoki soha bilan bog’langan matn asosida ona tiliga oid bilimlar kognitiv-pragmatik yondashuv asosida o’rganiladi.

Tafakkur voqelikning ongli aks etish jarayoni, inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali fikr vujudga keladi, fikrlash esa nutq holatida namoyon bo’ladi. Demak, o’quvchi o’z tafakkurini rivojlantirmay turib, og’zakli va yozma nutqni egallay olmaydi. O’quvchilar tafakkurini rivojlantirishda esa bevosita fanlararo integratsiyaning ahamiyati nihoyatda samarali.

ADABIYOTLAR

1. O’zbek tilining izohli lug’ati. 2-jild. O’zME. T. 2007.2. 16-b.
2. Mavlonova R.A. Rahmonqulova N.S. Boshlang’ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O’quv qo’llanma. T. “Voris”. 2013. 175-b.
3. Mavlonov O., Tilavov -T., Aminov B., 8-sinf “Biologiya (Odam va uning salomatligi)” -T.: 2018-y.70-73-b.
4. Muqumova S. Fonetika bo’limini o’rgatishga doir tavsiyalar. Til va adabiyot ta’limi. 2022.1-son.14-15-b.
5. Muqumova S. Ona tili, adabiyot va boshqa fanlar integratsiyalashganda (O’zbek xalq maqollari tahlili asosida) Til va adabiyot ta’limi. 2020.9-son.22-24-b.
6. N. Mahmudov, A. Sobirov, Sh. Sattorov, Sh. Toshmirzayeva, D. Mannopova. Ona tili. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. T. 2020-y. 278-b.
7. Yuldasheva D. O’zbek tilini o’qitish metodikasi. Buxoro – 2021. 176-b.